

OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KADRLARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha boshqarmasi boshlig'i*

Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasasida kadrlarni boshqaruv tizimi va mexanizmini takomillashtirish va uning innovatsion yo'llari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Innovatsiya, iqtisodiyot, Oliy ta'lim, boshqaruv, islohot, samaradorlik, muassasa, uzluksiz ta'lim.*

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida oliy talim muassasalari sonini oshirish, ularning boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, milliy iqtisodiyotimizni rivojlanishida oliy talim muassasalari o'rnini yuksaltirish eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardandir. Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida 2022-yilning 2022-2023-o'quv yiliga kelib mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan davlat va xususiy oliy talim muassasalari soni 191 taga yetdi hamda oliy talim muassasalarda tahsil olayotgan talabalar soni bir milliondan oshdi. Shuningdek, 2021- yilning 1-yanvar holati bo'yicha UNESCOning statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, xorijda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 85,9 ming nafarni tashkil etgan. Har qanday buyuk va iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlarning rivojlangan darajaga yetishlarida ta'lim tizimini, xususan, oliy ta'lim tizimini o'rni beqiyosligini inkor etib bo'lmaydi. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda rivojlantirish, tizimda innovatsiyalarni joriy etish, innovatsion boshqaruvni tashkil etish va doimiylikni ta'minlash asosida, jahondagi eng yetakchi oliy talim muassasalari bilan raqobatga kirisha oladigan darajaga olib chiqish maqsadida uzluksiz va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta'minlash malakali ta'lim menejerlariga bevosita bog'liq. O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyati, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarini jadal suratlar bilan izchil rivojlantirishdan iborat. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda tarmoqlar uchun chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarga ega salohiyatli yosh kadrlarni tayyorlash alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqsad - inson kapitalini yuksaltirish O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim, uzviy qismlaridan biridir. Bu yo'lda oliy ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, uni malakali va amaliy tajribaga ega bo'lgan shijoatkor mutaxassislar bilan ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan tizimli chora- tadbirlar natijasida oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, huquqiy-me'yoriy, metodik ta'minoti bosqichma-bosqich mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida —davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish

kabi yo_nalishlar belgilangan bo_lib, bu o_z navbatida, mazkur jarayonni tadqiq etish va tahliliy yo_nalishga ega bo_lgan pedagogik tizim sifatida ko_rib chiqishda oliy ta'lim muassasalarida boshqarish strategiyasini rivojlantirishda muhim o_rin tutadi.

Ta'lim sifatini boshqarish muammosining dolzarbligi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o_zgarishlar, davlatning ta'lim siyosatidagi o_zgarishlar bilan ham bog_liq. Ta'lim sifatini falsafiy va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilishning muammoli va ko_p qirrali ta'lim tizimini o_rganishni, mas'ul sub'ektlarni - oliy ta'limning manfaatdor tomonlarini aniq-lashni, ularning qoniqish darajasini va ushbu ta'rifga asoslanib, universitet faoliyatining strategiyasini nazarda tutadi. Sifat kabi umumiy falsafiy kategoriyalarni tahlil qilish oliy ta'lim sifatini boshqarishning samarali strategiyasini shakllantirish muammosini to_liq ochib berishga imkon beradi. Oliy ta'lim sifatini boshqarishning ma'nosi oliy kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini jamiyatda vujudga keladigan qiymat yo_nalishlariga muvofiqlashtirishdan iborat bo_lishi kerak. Oliy ta'limda olib borilayotgan islohatlar, ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarning ko_pligi va mavjud ta'lim tizimining yetarli darajada samaradorligi nafaqat o_qitishning yangi shakllari va usullarini, balki oliy ta'lim muassasalarida yangi ta'lim paradigmasi va yangi sifat menejmenti strategiyalarini izlashni belgilaydi. Ta'lim tushunchalarining mavjud plyuralizmi, albatta, jamiyatimizning rivojlanish jarayonini aks ettiradi, lekin ayni paytda bir qator murakkab nazariy va amaliy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Oliy o_quv yurtlarining tabaqalanishi, ta'lim dasturlarining xilma-xilligi kasbiy faoliyatning yangi turlarining ehtiyojlariga, jamiyatimizning ijtimoiy tuzilishining murakkabligiga va unda o_z manfaatlariga ega bo_lgan ijtimoiy guruhlarining ta'lim sifatiga o_z talablarini qo_yishiga mos keladi. Shu munosabat bilan zamonaviy oliy ta'lim sifati bo_yicha uslubiy ko_rsatmalar masalasi dolzarb bo_lib qoladi, bu uning strategiyasi- va taktikasini aniq jamiyatning rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda belgilashi kerak. Ta'lim faoliyatining turli tomonlarini tavsiflovchi va umuman ta'limni rivojlantirish istiqbollari, ushbu sohadagi siyosat va strategiyalar to_g_risida tasavvur beradigan ilmiy g_oyalar va bilimlarni umumlashtirish, sintez qilish juda muhimdir. Ushbu sintez tafakkurning mavhumdan konkret tomonga, shu jumladan ta'lim sifatining falsafiy yo_naltirilgan nazariyasiga harakatining asosiy vazifasidir.

iy-pedagogik kadrlarning ilmiy va boshqaruv salohiyati yetarli bo'lmagan holda ularning samaradorligini oshirish mumkin emas. Shuning uchun boshqaruv mexanizmlarini qo'llashda ta'lim muassasalarining mavjud ilmiy salohiyatiga e'tibor qaratish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy va boshqaruv salohiyatini aniqlamasdan, boshqaruv mexanizmini qo'llash tizimni takomillashtirishga doir qo'yilgan maqsadlarga erishishga imkon bermasligi mumkin. Bunday hollarda ta'lim muassasasining mavjud ilmiy salohiyat va boshqaruv bo'linmalarining boshqaruv salohiyatiga muvofiq mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim tizimida boshqaruvni takomillashtirishdan avval boshqaruv, innovatsion boshqaruv, tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv kategoriyalari bo'yicha ilmiy izlanishlarni o'rganib chiqishimiz va unga o'z yondashuvlarimizni shakllantirishimiz lozim.

iyatni taraqqiyotga yetaklovchi, zamon talablaridan ildamroq bo'lgan g_oyalarni yaratish va ularni boshqaruv jarayoniga targ'ib etish hamda samarali natijani ta'minlashdir⁹¹ Bugungi kunda tashkilotlar boshqaruvida boshqaruv mexanizmlari tashkiliy va iqtisodiy

soʻzlari bilan birgalikda — boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi sifatida qoʻllanilmoqda. Boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini mazmunini oʻrganishda bir qator xorijiy va yurtimiz olimlari oʻz nuqtayi nazarlari boʻyicha turlicha taʼriflar orqali ifodalaganlar.

Oliy taʼlim muassasalari innovatsion boshqaruvidagi asosiy masalalardan biri taʼlim dargohiga mos boʻlgan tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini ishlab chiqib, boshqaruv jarayonida tashkiliy boshqaruv hamda iqtisodiy boshqaruv tushunchalarini bir-biriga muvofiqligini taʼminlab olishdir. Innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlgan tashkiliy va iqtisodiy shakllardagi elementlardan tashkil topgan. Demak, boshqaruvni innovatsion tashkil etishda iqtisodiy hamda tashkiliy tushunchalardagi elementlarni shakllantirish lozim hamda ularni quyidagi vazifalarini hal etish maqsadga muvofiq:

- innovatsion boshqaruv mexanizmining maqsadlari,
- innovatsion boshqaruv mexanizmining vazifalari belgilash;
- innovatsion boshqaruv mexanizmining tamoyillarini aniqlash;
- boshqaruv mexanizmining ishlash shartlari va omillarini aniqlash;
- innovatsion boshqaruvda ishtirokchilarini aniqlash;
- innovatsion boshqaruv usullari, uslublari va vositalarini ishlab chiqish;
- boshqaruv samaradorligini aniqlash;
- innovatsion boshqaruv davomiyligini taʼminlash;
- boshqaruv natijalariga asosan monitoring qilish tizimini ishlab chiqish;
- innovatsion boshqaruvga doir strategiyani belgilash va boshqalardan iborat.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini oʻzgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning oʻzi taqozo etmoqda. Respublikada taʼlim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uygʻunlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, taʼlim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bogʻlangan boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida taʼlim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda oliy taʼlim muassasalarini boshqarish sohasida har bir rahbar xodimlar va professor-oʻqituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan oʻz huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim. Ayni paytda taʼlim tizimining oliy taʼlim turini amalga oshiruvchi oliy taʼlim muassasasi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, iqtisodiyotning real tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

amnaviy globallashtirish sharoitida oliy taʼlim muassasalarida taʼlim tizimining shakllanishi va rivojlanishi yangi innovatsion sharoitlarga va iqtisodiyot talablariga muvofiqligini taʼminlashga barcha taʼlim muassasalari amalda harakat qilmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг —Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, ПҚ – 2909 -сонли, 18-сон, 313-модда , 2017 йил 20 апрель.
2. Adizova T.M. Boshqaruv muloqati. Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.
3. Fayzullaeva N.S. Ta`lim menejmenti. - T.: IQTISODIYOT, 2019.
4. Azizxo_jaeva N.N. O_qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. Toshkent.: Nizomiy nomli TDPU 2000.
5. Хакимова М., Лутфуллаева Н. ва бошқалар. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. - Т.: IQTISODIYOT, 2019.